

---

O'ktamova Moxigul Xamidulloh qizi, FarDU katta o'qituvchisi,  
[uktamovamoxigul@gmail.com](mailto:uktamovamoxigul@gmail.com)

Yusufova Zarnigor Alijon qizi, Farg'ona davlat universiteti talabasi



---

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QO'SHMA SO'ZLARNING  
YASALISHI, TUZILISHI VA QO'SHMA FRAZEOLOGIZMLAR  
ANNOTATSIYA**

<https://zenodo.org/records/20112008>

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida qo'shma so'zlarning yasalishi, ularning struktur-semantik xususiyatlari hamda qo'shma frazeologik birliklar qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida har ikki tildagi qo'shma birliklarning morfologik tuzilishi, semantik yaxlitligi va imlo xususiyatlari aniqlanadi.

*Kalit so'zlar: qo'shma so'z, kompozitsiya, struktur tahlil, frazeologik birlik, semantika.*

**FORMATION, STRUCTURE OF COMPOUND WORDS AND  
COMPOUND PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK  
LANGUAGES.**

**ABSTRACT**

In this article, the formation of compound words in English and Uzbek, their structural-semantic features, as well as compound phraseological units are analyzed from a comparative perspective. Within the scope of the research, the morphological structure, semantic integrity, and orthographic features of compound units in both languages are identified.

*Key words: compound word, composition, structural analysis, phraseological unit, semantics.*

# ОБРАЗОВАНИЕ И СТРУКТУРА СЛОЖНЫХ СЛОВ И СОСТАВНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

## АННОТАЦИЯ

Данной статье проводится сравнительный анализ образования сложных слов в английском и узбекском языках, их структурно-семантических особенностей, а также сложных фразеологических единиц. В рамках исследования определяются морфологическая структура, семантическая целостность и орфографические особенности сложных единиц в обоих языках.

*Ключевые слова:* сложное слово, композиция, структурный анализ, фразеологическая единица, семантика.

## KIRISH

Til lugʻat boyligining kengayishida soʻz yasaliş jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu lugʻat boyligining maʼlum qismini qoʻshma soʻzlar tashkil qilgan. Qoʻshma soʻzlar nutqimizni ixchamlantirish, undagi maʼnoni birlashtirish va fikrni aniqlik bilan yetkazishga xizmat qiladi. Qoʻshma frazeologik birliklar tilning lugʻat boyligini yaratibgina qolmay ogʻzaki va yozma nutqda soʻzlashuvni boy va toʻliq qiladi. Til oʻrganayotganlar uchun qoʻshma soʻzlar soʻzlarni yangi maʼno hosil qilish qoidalarini oʻrganish bilan birga fikrlarni aniq va ixcham ifodalash imkoniyatlariga ega boʻlishadi. Shuningdek, qoʻshma soʻzlar tilning grammatik va semantik tuzilishini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Ingliz va oʻzbek tillarida qoʻshma soʻzlar ikki yoki undan ortiq asoslarning birikishi natijasida hosil boʻlib, semantik jihatdan yaxlit tushunchani ifodalaydi. Ular oddiy soʻz birikmalaridan farqli ravishda nutqda bitta savolga javob beradi va gapning bitta boʻlagi vazifasida keladi.

Qoʻshma soʻzlar har ikki tilda – Ingliz va Oʻzbek tillarida – soʻzlarning birlashishi orqali yangi maʼno hosil qilish xususiyatiga ega. Ingliz tilida koʻplab qoʻshma soʻzlar noun + noun, adjective + noun yoki verb + noun tuzilishida boʻlib,

ular nutqni ixcham va aniq ifodalash imkonini beradi. Masalan, “blackboard” (qora doska) yoki “toothpaste” (tish pastasi) kabi soʻzlar ikki mustaqil soʻzning birlashishidan hosil boʻladi va yangi leksik birlik sifatida ishlatiladi. Shu bilan birga, qoʻshma frazeologizmlar tilning eng qiziqarli va murakkab leksik birliklaridan biridir. Ular ikki yoki undan ortiq soʻzning birlashishi orqali hosil boʻlib, soʻzma-soʻz maʼnodan tashqari, yangi va obrazli maʼno kasb etadi. Ingliz tilida frazeologizmlar koʻpincha idiom sifatida ishlatiladi va nutqda maʼnoni ixcham va aniq ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, “kick the bucket” iborasi soʻzma-soʻz “chelakni tepmoq” degan maʼnoni bildirsa-da, aslida “vafot etmoq” maʼnosida ishlatiladi. Oʻzbek tilida ham qoʻshma frazeologizmlar keng qoʻllaniladi va ular nutqda fikrni obrazli, jonli va taʼsirli qilishga yordam beradi. Masalan, “tosh bosmoq” iborasi soʻzma-soʻz tushunsa ham, kontekstda “jiddiy qaror qabul qilmoq” degan maʼnoni bildiradi. Qoʻshma frazeologizmlarni oʻrganish tilning stilistik boyligini, ifoda imkoniyatlarini va nutq madaniyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Oʻzbek tilida ham qoʻshma soʻzlar ikki yoki undan ortiq soʻzning birlashishi bilan hosil boʻladi. Ular sifat + ism, feʼl + ism, yoki ism + ism tuzilishida boʻlishi mumkin. Masalan, “qushqoʻnmas” – qushlar kira olmaydigan joy degan maʼnoni bildiradi, “yashilbarg” esa yashil bargli narsalarni taʼriflaydi. Oʻzbek tilidagi frazeologizmlar ham nutqda koʻp ishlatiladi va koʻpincha maʼnoni obrazli ifoda qilishga xizmat qiladi. Masalan, “oyogʻi ostida qolib ketmoq” iborasi soʻzma-soʻz tushunsa ham, kontekstda “orqada qolib ketmoq” maʼnosini bildiradi.

Shunday qilib, qoʻshma soʻzlar va qoʻshma frazeologizmlar har ikki tilda til boyligini oshirish, nutqni ixchamlashtirish va fikrni aniq ifodalashda muhim vazifa bajaradi. Ularning tuzilishini tushunish til oʻrganishda va ilmiy tadqiqotlarda katta ahamiyatga ega.

## **USULLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI**

Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahliliy va tasviriy metodlardan foydalanildi. Qoʻshma soʻzlarni oʻrganish va ularni tahlil qilishda koʻlab tadqiqodchi va olimlar oʻz hissasini qoʻshgan, jumladan rus tilshunosi Y.A.

Zemskaya qo'shma so'zlarning struktur-semantik modellari va mahsuldorlik darajasini aniqlagan. Ye.S. Kubryakova kompozitsiyani kognitiv jarayon sifatida talqin qilgan. G. Marchand ingliz tilida qo'shma so'zlarning yasash modellarini chuqur o'rgangan. O'zbek tilshunosligida A. Hojiyev qo'shma so'zlarning semantik yaxlitligi va imlo birligini asoslab bergan.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Tadqiqot davomida ingliz va o'zbek tillarida mavjud bo'lgan qo'shma so'zlarning ilmiy tahlili ularni yopiq (closed taxminan 1000+ birlik), ochiq (open, taxminan 800+ birlik) va chiziqchali (hyphenated, taxminan 200+ birlik) shakllar bo'yicha tasniflash imkonini berdi. Ularning tarkibi esa turli semantik guruhlardan iborat bo'lishi mumkin, masalan, hayvon, qush, odam, an'ana yoki urf-odat bilan bog'liq so'zlar. Masalan, ingliz tilidagi notebook – “daftar”, birdhouse – “qush uyi”; o'zbek tilidagi gultojxo'roz – “mahalliy gul nomi”, beshiktebratar- ”hasharot nomi”. Bu turdagi yopiq qo'shma so'zlar ko'pincha buyum, uy-joy, o'simlik yoki hasharot bilan bog'liq bo'ladi.

O'zbek tilidagi ”beshiktebratar” qo'shma s'zi tarkibidagi ”beshik” atamasi faqatgina o'zbek tilida mavjud bo'lib, an'anaviy uy ro'zgo'r buyumi ma'nosini bildiradi. Aslida beshik yangi tu'ilgan chaqaloqni uxlatish uchun ishlatiladigan kichik arqonli yoki yog'ochdan yasalgan karavot bo'lib u ota-ona va chaqaloq bilan bog'liq urf- odat va an'ana elementidir.

Tahlil natijalariga ko'ra, ingliz tilida qo'shma so'zlar yopiq (blackboard), chiziqchali (mother-in-law) va ajratib yoziluvchi (high school) shakllarda uchraydi. O'zbek tilida esa bitishik (temiryo'l) hamda chiziqchali (ota-ona) shakllar keng qo'llaniladi.

Ingliz tilida post office – “pochta bo'limi”, human rights – “inson huquqlari”; o'zbek tilida savdo markazi – “tovar sotiladigan joy”, xalq bayrami – “madaniy urf-odat” misollarida ko'rish mumkin. Bu kabi bir qator ochiq qo'shma so'zlar ko'proq odam faoliyati, urf-odat yoki madaniy hodisalar bilan bog'liq bo'ladi.

Chiziqchali qo'shma so'zlar murakkab tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Ingliz tilida mother-in-law – “qaynona”, father-in-law – “qaynota”;

o‘zbek tilida ota-onalik-huquqi – “ota-onaga oid huquq”. Bu shakl odamlar va ularning ijtimoiy roli bilan bog‘liq birliklarni aniqlash uchun qulaydir.

Qo‘shma frazeologizmlar esa so‘zlarning alohida ma’nosidan farq qiladi. Ingliz tilida break the ice – “muhitni yumshatish”, let the cat out of the bag – “sirni oshkor qilish”; o‘zbek tilida ko‘zdan kechirmoq – “qiyin vaziyatdan chiqish”, tug‘ilgan kunni nishonlamoq – “madaniy urf-odatni bajarish”. Bu frazeologik birliklar hayotiy tajriba, madaniyat va urf-odat bilan bog‘liq bo‘ladi.

### **MUHOKAMA**

Ingliz va o‘zbek tillaridagi qo‘shma so‘zlar va qo‘shma frazeologizmlarning lingvokognitiv tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning shakllanishi har bir xalqning o‘ziga xos dunyoqarashi va lisoniy tafakkuri bilan uzviy bog‘liqdir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, qo‘shma so‘zlar va frazeologizmlar shunchaki ikki yoki undan ortiq komponentning yig‘indisi emas, balki yaxlit bir kognitiv strukturani ifodalaydi.

Tuzilish jihatidan o‘xshashliklar: Har ikkala tilda ham qo‘shma birliklar komponentlarning semantik birikuvi asosida yangi tushuncha hosil qiladi. Masalan, ingliz tilidagi "cold-hearted" va o‘zbek tilidagi "toshbag‘ir" birliklari tuzilishi jihatidan o‘xshash bo‘lib, inson xarakterining salbiy jihatini metaforik ko‘chim asosida ifodalaydi.

Milliy-madaniy tafovutlar: Ingliz tilidagi qo‘shma so‘zlar ko‘pincha shaxsiy ish faoliyati, texnologiya, sport va ijtimoiy tizimlar bilan bog‘liq hodisalarni ifodalaydi. Masalan, “school bus” (maktab avtobusi) atamasi AQShdagi maktab transport tizimini, “tea time” esa Britaniya choy ichish an‘analarini aks ettiradi. Shu bilan birga, frazeologizmlar ham ish faoliyati yoki ijtimoiy munosabatlarni ramziy tarzda ifodalaydi: “break the ice” iborasi muloqotni boshlashni, “piece of cake” esa biror ishning osonligini bildiradi. Bu holatlar ingliz madaniyatining rasmiy va tashqi ijtimoiy tartibga bog‘liqligini aks ettiradi.

O‘zbek tilida esa qo‘shma so‘zlar va frazeologizmlar ko‘proq tabiat hodisalari, oilaviy hayot va xalq an‘analari bilan bog‘liq. Masalan, “mehmonxona” so‘zi mehmondo‘stlik madaniyatini, “suv toshqini” tabiiy hodisani ifodalaydi. Shu

tariqa, o'zbek tilida semantika ko'proq mahalliy hayot va an'anaviy hodisalar bilan bo'lib qo'shilmalar milliy mentalitetni yorqinroq aks ettiradi.

Kognitiv modellar: ma'lum bo'ldiki, qo'shma frazeologizmlarning shakllanishida metafora va metonimiya yetakchi rol o'ynaydi. Masalan, o'zbek tilidagi "qo'li ochiq" (saxiy) metonimik ko'chimi inson a'zosi orqali xarakterni ifodalasa, ingliz tilidagi "open-handed" ham shunday kognitiv modelga asoslanadi. Shuningdek, ayrim qo'shma frazeologizmlar umumbashariy qadriyatlarni aks ettirsa (masalan, jasurlik yoki donishmandlik), boshqalari faqat muayyan xalq turmush tarzi va diniy qarashlari bilan bog'liqdir.

### **XULOSA**

Tadqiqot natijasida ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlar va frazeologizmlar inson xarakterini individuallashtirishning muhim lisoniy vositasi ekanligi aniqlandi. Ushbu birliklar ikki va undan ortiq komponentdan tashkil topib, nutqda semantik yaxlitlikni namoyon etadi hamda uslubiy jihatdan ham neytral, ham ekspressiv xarakter kasb etadi. Tillarning qiyosiy tahlili ularning ma'no doirasida umumbashariy o'xshashliklar bilan birga, milliy mentalitetdan kelib chiquvchi sezilarli tarkibiy tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Xulosa qilib aytganda, qo'shma frazeologik birliklarni lingvokognitiv jihatdan o'rganish nafaqat nazariy tilshunoslikni boyitadi, balki amaliy tarjimashunoslik va tillararo muloqot samaradorligini oshirishda ham qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Hojiyev A. O'zbek tilida qo'shma, juft va takroriy so'zlar. – Toshkent: Fan, 1963. – 45–52-betlar.

2. Земская Е. А. Русский язык. Морфемика. Словообразование. – Москва: Просвещение, 1987. – 112–118-betlar.

3. Кубрякова Е. С. Типы языковых значений. Семантика производного слова. – Москва: Наука, 1981. – 73–80-betlar.

4. Marchand H. Word-Formation in English. – The Hague: Mouton, 1969. – 15–28-pages.

5. Hojiyev A. O‘zbek tili morfologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1981. – 210–214-betlar.